

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-184-1

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Salimova Hilola

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ
MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida)5-10

IQTISODIYOT FANLARI

Kadirova Shaxnoza

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING
SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH 11-14

YURIDIK FANLARI

Rahmonov Abbos

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY
JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI
BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI 15-18

Ernazarova Feruza

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA
IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI 19-22

Donayeva Aziza

"ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'IY INTELLKTN HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH" 23-29

Sobirov Temur

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT
SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR,
TA'RIFLAR VA O'ZBEKISTONDAGI AMALIYOT 30-34

Тогаймуродова Камола

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ
РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК 35-38

Бобоева Муслима

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ 39-42

Tuymayev Asadbek

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIK 43-46

Nizomova Khosiyatkhon

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW 47-49

Qadamov Javohirbek

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA
QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI 50-55

Ergashova Mamura

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK
NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI 56-60

Isaqlulova Elmira

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI 61-66

<i>Амирова Умида</i> ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i> XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	71-74
<i>Fayziyev Hayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY AHAMIYATI	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i> ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ	84-87
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Арипджанова Фарзона</i> ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП)	88-92

XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR

Xursanov Shamsiddin Allamurod o'g'li

Toshkent davlat yuridik
universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur ishda xalqaro savdo jarayonlariga barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiyalashning huquqiy asoslari tahlil etilgan. Unda iqtisodiy o'sishning ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirilishi zarurati asosiy e'tiborga olingan. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), BMTning Savdo va Taraqqiyot bo'yicha Konferensiyasi (UNCTAD) hamda Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGlar)ning ushbu sohadagi o'rni yoritilgan. Xususan, rivojlanayotgan davlatlarning ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishdagi imkoniyatlari, O'zbekiston misolida milliy siyosatning barqaror rivojlanishga yo'naltirilganligi tahlil qilinadi. Ish yakunida xalqaro savdoda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, xalqaro savdo, WTO, UNCTAD, SDG, ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyot, savdo adolati.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN INTERNATIONAL TRADE: CHALLENGES AND PROPOSALS

Khursanov Shamsiddin Allamurod ugli

Master's Student at Tashkent
State University of Law

Abstract. This paper explores the legal foundations of integrating sustainable development principles into international trade. It highlights the need for harmonizing economic growth with ecological safety and social justice, drawing on key global instruments such as the WTO, UNCTAD, and the Sustainable Development Goals (SDGs). The study analyzes how international trade policies can promote environmental protection and equitable economic relations, especially for developing countries. It also examines Uzbekistan's efforts to align its trade strategies with sustainable development objectives. The paper concludes with proposals to improve legal mechanisms that ensure sustainable trade on a global scale.

Keywords: sustainable development, international trade, WTO, UNCTAD, SDGs, environmental protection, green economy, trade justice.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/uzb-15>

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglik bilan uyg'un holda olib borishdir. Bu vazifa ayniqsa global miqyosdagi jarayonlarda, jumladan xalqaro savdo sohasida alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro savdo, bir tomondan, mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar almashuvini ta'minlab, iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadi, ikkinchi tomondan esa, noto'g'ri boshqarilganda, ekologik muhitga va ijtimoiy tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun bugungi global iqtisodiy tuzilmada barqaror rivojlanish tamoyillarining xalqaro savdoga integratsiyalashuvi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Barqaror rivojlanish, BMT tomonidan 1987 yilda nashr etilgan *Our Common Future* (Brundtland hisoboti)da ilk bor rasmiy tarzda ta'riflangan bo'lib, u "kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamasdan, hozirgi ehtiyojlarni qondirish" sifatida

izohlangan¹. Bu ta'rifdan kelib chiqib, barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mezonlarni bir butun sifatida qaraydi. Shu bois xalqaro savdo ham nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ekologik xavfsizlikni va ijtimoiy adolatni ham ta'minlovchi vosita sifatida baholanishi zarur.

Bugungi kunda global miqyosda savdo siyosatining barqaror rivojlanishga bo'lgan ta'sirini tahlil qilishda asosiy institutlar – Jahon Savdo Tashkiloti (WTO)², BMTning Savdo va Taraqqiyot bo'yicha Konferensiyasi (UNCTAD)³ va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG – Sustainable Development Goals) muhim rol o'ynaydi. Ular xalqaro savdo jarayonlarida ekologik barqarorlik va ijtimoiy inklyuzivlikni ilgari suruvchi yondashuvlarni taklif qilmoqda.

WTO o'zining Savdo va Atrof-muhit qo'mitasi orqali savdo siyosatini ekologik masalalar bilan uyg'unlashtirish ustida ishlaydi. Masalan, WTOning asosiy hujjatlaridan biri bo'lgan GATT 1994da atrof-muhitni himoya qilish savdo cheklovlariga sabab bo'lishi mumkinligi tan olingan⁴. Shu bilan birga, WTO rivojlanayotgan mamlakatlarga ekologik toza texnologiyalarni joriy qilishda texnik yordam berishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa ularning xalqaro bozorlarda barqaror mahsulotlar bilan raqobatlasha olishlariga zamin yaratadi.

UNCTAD esa savdoni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqaror rivojlanish vositasiga aylantirishga harakat qiladi. U ekologik toza ishlab chiqarish va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi orqali kichik va o'rta korxonalarni rag'batlantirish, ekologik sertifikatlariga ega mahsulotlar eksportini rivojlantirish yo'lida tavsiyalar beradi. UNCTAD, ayniqsa, Afrika va Osiyo davlatlarida organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni ko'paytirishga katta e'tibor qaratmoqda⁵.

BMT tomonidan 2015 yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGlar) esa xalqaro savdoni keng doirada barqarorlikka xizmat qiladigan vosita sifatida ko'rsatadi. Masalan, SDG 8 (Insonparvar iqtisodiy o'sish), SDG 12 (Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish), SDG 13 (Iqlim o'zgarishiga qarshi choralar) va SDG 17 (Hamkorlik va global sheriklik) savdo sohasida ekologik va ijtimoiy yondashuvlarning integratsiyasini nazarda tutadi⁶.

Bugungi global iqtisodiy sharoitda esa xalqaro savdoni barqarorlashtirishga doir bu yondashuvlar yanada muhimlik kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, global tengsizlik va pandemiyadan keyingi iqtisodiy inqiroz sharoitida savdo siyosatlari qayta ko'rib chiqilmoqda. Masalan, ko'plab rivojlangan davlatlar ekologik jihatdan xavfsiz bo'lmagan mahsulotlarni import qilishga cheklovlar qo'ymoqda. Shu bilan birga, barqaror mahsulotlar uchun tarif imtiyozlari, sertifikatlar, yashil investitsiyalar ko'paymoqda. Bu jarayonlar xalqaro savdo siyosatini ekologik va ijtimoiy jihatdan uyg'unlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda emas. Mamlakatda 2030-yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish bo'yicha milliy strategiyasi qabul qilinib, xalqaro savdo,

¹ Brundtland Commission. *Our Common Future*. Oxford University Press, 1987.

² Jahon Savdo Tashkiloti (WTO). *The Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization*, 1994

³ United Nations. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. A/RES/70/1, 2015.

⁴ WTO Committee on Trade and Environment. *Reports and Recommendations*. www.wto.org

⁵ UNCTAD. *Green Industrial Policy: Concept, Policies, Country Experiences*, 2017.

⁶ United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *Trade and Environment Review*, turli yillik nashrlar.

energiya samaradorligi, yashil iqtisodiyot va ekologik standartlar bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, mamlakat SDGlar asosida o'z savdo siyosatini diversifikatsiya qilishga, ekologik toza mahsulotlar eksportini oshirishga harakat qilmoqda.

Bugungi kunda butun dunyo bo'yicha ko'plab davlatlar tomonidan xalqaro savdoda barqaror rivojlanishga yordam beruvchi quyidagi tamoyillarni ilgari surishmoqda:

Atrof-muhit va iqtisodiyot o'rtasidagi uyg'unlik. Barqaror rivojlanish uchun savdo siyosati ekologik barqarorlikni inobatga olishi kerak. Ko'plab rivojlanayotgan davlatlar o'z tabiiy resurslarini haddan tashqari ekspluatatsiya qilishga majbur bo'lishmoqda, bu esa uzoq muddatli zarar keltiradi. Shu sababli, xalqaro savdo siyosatlari ekologik zararlarni kamaytiruvchi choralarga asoslangan bo'lishi lozim.

Savdoda tenglik va adolat tamoyili. Rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik barqaror rivojlanishga to'siq bo'layotgan muhim omillardan biridir. Savdo tizimlari shunday qayta ko'rib chiqilishi kerakki, ular kam rivojlangan davlatlarga o'z mahsulotlarini adolatli narxlarda eksport qilish imkonini bersin¹.

Ekologik xavfsizlikni savdo orqali mustahkamlash. Xalqaro savdo shartnomalari va bitimlarida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan bandlar kiritilishi zarur. Bu, xususan, xavfli chiqindilarning savdosi, biologik xilma-xillik va o'rmon resurslarini asrashda muhimdir.

Xalqaro moliyaviy institutlar islohotlari. Xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi) savdo orqali barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan siyosatlarni ishlab chiqishlari kerak. Bu fondlar ekologik talablarga javob beradigan loyihalarni moliyalashtirishda ustuvorlik berishi zarur.

Bugungi global iqtisodiyotda xalqaro savdo barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylangan bo'lsa-da, bu sohada hanuzgacha bir qator dolzarb muammolar mavjud. Ularning ba'zilar bevosita ekologik xavfsizlik, teng savdo imkoniyatlari va ijtimoiy adolat bilan bog'liq bo'lsa, boshqalari esa siyosiy va institutsional muammolardan kelib chiqmoqda.

Ko'plab rivojlanayotgan davlatlar xalqaro bozorlarga chiqishda infratuzilma, texnologiya va moliyaviy resurslar yetishmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu esa ularning ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyatlarini cheklaydi. WTO va UNCTAD tomonidan ko'rsatilayotgan texnik yordamlar mavjud bo'lsa-da, bu yordamlar hali ko'plab mamlakatlar uchun yetarli emas. Rivojlangan davlatlar va xalqaro moliyaviy institutlar rivojlanayotgan mamlakatlarga ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilishda texnik va moliyaviy yordamni kuchaytirishi lozim. UNCTAD kabi tashkilotlar orqali "green capacity building" (yashil salohiyatni oshirish) dasturlarini kengaytirish foydali bo'ladi.

Ba'zi davlatlarda iqtisodiy foyda ortidan quvish ekologik standartlar va barqarorlik tamoyillarining e'tibordan chetda qolishiga olib kelmoqda. Masalan, o'rmonlarni haddan ortiq kesish, tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish orqali qisqa muddatli foyda olinmoqda, ammo bu uzoq muddatda global isish va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Xalqaro savdo bitimlariga ekologik mezonlar kiritilishi zarur. Masalan, WTO doirasida savdo shartlarida ekologik muvofiqlik sertifikatlari talab qilinishi, barqaror mahsulotlarga imtiyozlar

¹ Sachs, Jeffrey D. *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press, 2015.

berilishi mumkin. Shuningdek, SDG 12 doirasida ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini ekologik jihatdan samarali qilishga qaratilgan milliy siyosatlarni ishlab chiqish zarur.

Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlar tomonidan joriy qilinayotgan "Carbon Border Adjustment Mechanism" (karbon soliqlari) orqali yuqori karbon chiqindili mahsulotlarga bojlar qo'yilishi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy xavf tug'diradi¹. Bu davlatlar hali ekologik jihatdan toza texnologiyalarga o'ta olmagan, ammo bu tartiblar ularning mahsulotlarini bozordan siqib chiqarishi mumkin. Karbon soliqlari tizimi joriy etilar ekan, rivojlanayotgan mamlakatlarga muqobil tarzda ekologik modernizatsiya bo'yicha subsidiyalar va texnologik yordam dasturlari taklif etilishi zarur. Bu tizim inklyuziv va adolatli bo'lishi kerak.

Ko'plab mamlakatlarda "yashil" mahsulotlar – ya'ni ekologik toza, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanilgan mahsulotlar hali ham bozorda yetarlicha ulushga ega emas. Bunga sabab – xarajatlarning yuqoriligi, ekologik sertifikat olishdagi murakkabliklar va raqobatbardoshlikning pastligi. Davlatlar tomonidan yashil mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni subsidiyalash, ekologik sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish va ichki bozorda ham ularga nisbatan talabni oshirish choralari ko'rilishi lozim. WTO va UNCTAD bu borada davlatlararo savdo bitimlarida imtiyozli shartlar taklif qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Brundtland Commission. Our Common Future. Oxford University Press, 1987.
2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/70/1, 2015.
3. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO). The Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization, 1994.
4. WTO Committee on Trade and Environment. Reports and Recommendations. www.wto.org
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Trade and Environment Review, turli yillik nashrlar.
6. UNCTAD. Green Industrial Policy: Concept, Policies, Country Experiences, 2017.
7. European Commission. Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) – Legal Text and Explanatory Notes, 2021.
8. Sachs, Jeffrey D. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, 2015.

¹ European Commission. *Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) – Legal Text and Explanatory Notes*, 2021.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.